

RANGTASVIRNING TASVIRIY SAN'ATDAGI O'RNI

Xudayberdiyeva Kamola Furqatjon qizi

Guliston davlat universiteti Rangtasvir (dastgohli)

yo'nalishining 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy san'atning nazariy va amaliy jihatlari, xususan rangtasvir san'ati tahlil qilinadi. Maqolada rangtasvirda mavjud bo'lgan asosiy qonun-qoidalar, ularning tasviriy va kompozitsion ijoddagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, atrof-muhit va tabiiy olamning ranglar orqali ifodalanishi, bu ranglarning inson kayfiyati, hissiy holati va estetik qabuliga ta'siri ham chuqur tahlil qilingan. Maqolada ranglarning ohangdorligi, kontrast va kolorit me'yorlari, shuningdek, rassomlarning turli uslublardagi ijodiy yondashuvlari ham o'rganilgan. Shu tariqa, maqola tasviriy san'at va rangtasvirning nafaqat texnik, balki psixologik va estetik aspektlarini ham keng qamrab oladi.*

Tayanch so'zlar: *tasviriy san'at, rangtasvir, rang, moybo'yoq, uslub, kolorit, kontrast, rassom.*

Tasviriy san'at insoniyatning mehnat faoliyati zaminida shakllandi va rivoj topdi. Inson faoliyatining ma'lum sohasiga aylanib borayotgan san'at olami, uning siyosiy, ma'naviy hamda estetik qarashlarini aks ettiruvchi manbaga aylandi. Yurtimizning kelajakda buyuk mamlakatga aylanishi, jahonning rivojlangan davlatlari qatoriga qo'shilishida xalqimiz madaniyati, ma'rifati, san'ati va ma'naviyati alohida ahamiyatga egadir.

Bo'lajak rassom so'zsiz, tasviriy san'atning ifoda vositalari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lishi, turli badiiy materiallarning xususiyatlari va ulardan foydalanish kabi mukammal bilimga ega bo'lmog'i lozim. Rangtasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, maxsus polotnolarga, devorlarga, dastgohlarga ishlanadi.

Ma'lumki, XX asrda o'zbek milliy rangtasvir maktabi yaratilib, bunda rangtasvirning barcha tur va janrlarida asarlar yaratildi. Hozirda o'zbek milliy rangtasvir san'ati jahon hamjamiyati bilan bir qatorda rivojlanib kelmoqda. Rangtasvir asarlari monumental va dastgohli rangtasvirga bo'linadi. "Monumental" so'zi juda katta degan mazmunni berib, me'morchilik bilan bog'liq. Ushbu ijod namunalari uylarning devorlarini, shiftlarini bezashda qo'llaniladi. Dastgohli rangtasvir asarlari esa maxsus matolar, karton, yog'och, ramkaga tortilgan mato-xolost va shu kabilarga ishlanadi.

Markaziy Osiyoda ranglar haqidagi ta'limot qadimdan kitob miniaturasi, naqqoshlik va devorlarga freska pannolar ishlash bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Chunki, musavvirlik hunari rang tanlash va ularni tayyorlay bilishni talab etgan. Shuning uchun har bir shogird, avvalo, rang tayyorlash sirlarini va shu ishga bog'liq kimyoviy jarayonlarni o'rgangan.

Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lish va tarqalish hodisalari qadimdan olimlar va rassomlarning diqqatini tortgan.

Uyg'onish davri buyuk rassomlari va nazariyachilari Leon Battista Alberti, Leonardo da Vinchi va boshqalar rangtasvir bo'yicha asarlarida ranglarning xususiyatlari haqida yozganlar.

Atoqli va mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgoltslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. Isaak Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likning ko'p rangli ekanligini isbotlagan, ekranda spektr ranglarni hosil qilgan.

Buning uchun Nyuton quyoshning oq yorug'ligini derazadagi qora pardaning ingichka tirqishidan o'tkazgan va yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ekranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik dastasi ko'ringan.

Ekranda ko'ringan ranglar spektr ranglar bo'lib, ular quyidagicha joylashgan edi: qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, zangori, ko'k va binafsharang. Maxsus asbob-spektroskop yordamida ko'plab aniq va ravshan spektrlarni hosil qilish mumkin¹⁹. Ranglarning har birini o'z ma'nosi, ramzi va falsafasi bo'lib, ular inson ruhiyatiga va ongiga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi.

Ranglar insoniyat tafakkuri, orzusi, g'ururi, e'tiqodi, odatlari ijodi va san'ati bilan bog'liq. Shunday ekan ranglar ma'nosi ramzi va falsafasini har tomonlama chuqur va keng o'rganish zarur²⁰.

Barcha ranglar o'zining ta'siri his etilishi, bo'yicha og'ir va yengil rang xususiyatlarga ega. Rassomlarning rang o'zgarish qonunlarini bilishi katta ahamiyatga ega, Rangshunoslik ijod qilish usullarini o'rgatmasada tabiatda ranglar bilan bog'liq o'zgarishlarni tushuntirib, rangtasvirchi rassomlar ijodiga yaqindan yordam beradi.²¹ Rang orqali rassom mavjud borliqni o'ziga xos xususiyatlari bilan haqqoniy aks ettiradi. Jahon san'ati taraqqiyotida borliq rangini aks ettirishning turli uslub va tizimlari shakllangan.

Biroq hammasining asosida ranglarni bir-biri bilan aralashtirib, yangi rang hosil qilish uslubi yotadi. Nafis ranglarni toza chiqishi uchun, ranglarni aralashtirish qoidasi rangtasvir asarlarini yaratishda katta ahamiyatga egadir. Rang inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etuvchi vosita bo'lib, u insonda quvonch va ma'yuslik, tetiklik yoki g'amginlik, xotirjamlik yoki bezovtalik tuyg'ularini uyg'otishi mumkin. Rassom uchun rangning ana shu kuchi muhim omil bo'lib, ular asarning g'oyaviy plastik yechimida muhim ro'l o'ynaydi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, borliqni kuzatar ekanmiz, bizni qurshab turgan olam turli-tuman ranglardan iborat ekanligini ko'ramiz va bu bizni hayratga soladi. Ajdodlarimiz tabiatning shu sirli olamiga hayratga tushib, asrlar davomida uni o'rganib kelishgan.

¹⁹ S.S.Bulatov "Rangshunoslik". Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toashkent-2009.27-bet.

²⁰ F.Erkabayeva, N.Mirsolihova "Rangtasvir" O'quv qo'llanma."info Capital Group". Toshkent 2018. 12-bet.

²¹ R.Xudayberganov "Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari" O'quv qo'llanma. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.Toshkent-2019. 7-bet.

Bugungi kunda ham tasviriy san'atning rivojlanishida rangtasvirning ahamiyati katta bo'lib, ranglar inson hayotida o'ziga xos o'ringa ega. Zero, ranglar insonning kayfiyatiga, psixologiyasiga o'zining ijobiy va samarali ta'sirini o'tkaza oladi.

Bundan tashqari, yoshlarga atrofdagi jismlarning hajmini haqqoniy tasvirlash bilan birga, ularning konstruktiv tuzilishi, nisbatlari, perspektiva qonun-qoidalarini, ranglar, tabiatdagi ranglar koloritini, kontrastlilikini nazariy va amaliy jihatdan o'rgatibgina qolmay, ularda estetik didlarini o'stirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.S.Bulatov "Rangshunoslik". Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toashkent-2009.

2.F.Erkabayeva, N.Mirsolihova "Rangtasvir" O'quv qo'llanma. "Info Capital Group". Toshkent 2018.

3. Kiliç Ateş S., Berikbaev A. A. Pedagogical competencies in art education and the impact of educational reforms: The case of Uzbekista //Balikesir University Journal of Social Sciences Institute. – 2025. – T. 28. – №. 53.

4.Alikulovich B. A. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'llari //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 16. – C. 383-385.

5. Xamidov D. The importance of teaching //engineering engineering computer graphics" in higher education institutions." International journal of scientific researchers (IJSR) indexing. – 2024. – T. 4. – C. 320-323.

6. Allaberdiyevich U.B. Tasviriy san'atda innovatsion texnologiyalar: zamonaviy yondashuv va yangi imkoniyatlar. Iqro indexing, 16 (01), 374-378 [Электронный ресурс].

7. Farhod o'g'li R. F. Zamonaviy o'zbek tasviriy san'atida milliy an'analar va global san'at tendensiyalari uyg'unligi muammosi //masters. – 2025. – T. 3. – №. 32. – C. 57-61.

8.Boxodirovna K.D. Kompozitsiya fanini o'qitishdagi innovatsion usullarining ahamiyati //yosh olimlar, magistr va iqtidorli talabalarining ilmiy faoliyatini oshirishda ularga qaratilgan kreativ g'oyalar, yechim va takliflar. – 2025. – T. 3. – №. 26. – C. 35-39.

9.Karshiboeva D. B. The importance of innovative methods in teaching composition //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-1 (130). – C. 147-151.

10. Karshiboeva D.B. (2025). The role of composition in activation of creative abilities. Экономика и социум, (3-1 (130)), 152-156.

11. Sherjonov S. et al. Economic analysis of green buildings certification systems in emerging economies //Archives for Technical Sciences. – 2025. – T. 2. – №. 33.– C.463-471.

12.Boxodirovna K. D. et al. KOMPOZITSIYANING O'ZIGA XOS QONUNIYATLARI VA

ULARNING AHAMIYATI //MASTERS. – 2025. – Т. 3.-№.2.-С.137-141.
13.Boxodirovna K. D. et al. TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA KOMPOZITSION FIKRLASHNI
SHAKLLANTIRISH METODIKASI //Научный Фокус. – 2026. – Т. 3. – №. 33. – С. 266-
269.